

# **МАМЛАКАТИМИЗДА ТАЛАБА-ҚИЗЛАРДАН ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ МУТАХАССИСИ**

**СамИСИ “Жисмоний маданият” кафедраси  
муdiri Ж.Б Ахтамов  
СамГУ “Жисмоний маданият” кафедраси катта  
ўқитувчиси А.А. Қурбонов**

Мамлакатимизда талаба-қизлардан бўлажак соҳа мутахассисларига комплекс билимларни бериш ва улар бўйича тажрибаларни тасаввурларни, шакллантириш долзарб вазифа ҳисобланади.

Инсониятнинг илм олишга бўлган интилиши чексиздир. Замонасидаги барча билим асосларини билиш шарқ алломаларига хос. Беруний, Ибн Сино, Фаробий ва Бобур сингари буюк донишмандлар қомусий-енциклопедик билимга эга бўлган. Вақт ўтиши билан фанлар классификациясида табиат ва жамият ҳақидаги фанларнинг турли йўналишлари, тармоқлари вужудга келди. Қомусий билим олишга ёки қомусий билим беришга кишиларда, хусусан ўқитувчилар ва талабаларда қизиқиш камайиб, улар ўзига хос тор, бир ёқлама билимларга эга бўлиб қолмоқда. Бу ўз навбатида, биринчидан билимларни, фанларни бир-бирига боғлиқлиги ҳақидаги тасаввурларни камайтирса, иккинчидан ўқувчи ва талабаларнинг билимга нисбатан кучли қизиқишларига, эҳтиёжларига жавоб бера олмасликни келтириб чиқаради.

Мамлакатимизда жисмоний маданият ва жисмоний маданият бакалавр йўналиши бўйича мутахассислар тайёрлаш ўқув режасида билим ва малакаларга эга бўлиш режалаштирилган. Бу бир томондан яхши агар талаба давлат таълим стандартлари даражасида шу фанларнинг асосини эгалласа ва келгуси педагогик фаолиятида фойдалана олса биз мақсадга эришган бўламиз.

Лекин амалда бошқа манзарани кўриш мумкин. Биринчидан соҳани танлаган ёш талаба, “мен жисмоний маданият ва спорт мутахассислигини танлаган бўлсаму, менга яна бунча қўшимча фанларни ўрганишимни нима зарурияти бор”, деб онглилик ва фаоллик кўрсатмайди, асосий эътиборни

мутахассислик фанларга қаратади натижада бошқа фанлардан билимлари саёз бўлиб қолмоқда.

Жисмоний маданият фани шу жумладан спорт машқи жараёни, бошқа фанларга ўхшамаган ҳолда ҳозирда мавжуд бўлган табиий-илмий, ижтимоий-гуманитарфанларнинг маълумотларидан тўлафойдаланувчи марказий (универсал) фан сифатида намоён бўлмоқда. Ўқув режаси ҳам шу ғояга асосан ишлаб чиқилган. Лекин бугунги кунда гуманитар-ижтимоий, математик ва табиий-илмий, ҳаттоки умумқасбий фанлар бўйича машғулот олиб боровчи ўқитувчи, машғулотларни зарур даражада жисмоний маданият ва спорт машқи жараёни билан боғлай олмапти. Масалан, математика, информатика, анатомия, физиология, тиллар бўйича бериладиган, айнан шу фанларга хос бўлган маълумотлар жисмоний маданият ва спорт машқи жараёни билан боғланмаганлиги учун талабалар томонидан уларни ўрганишга фаоллик бўлмапти. Ҳарфлар ёки бошқа рамзлар билан ифодаланган олий математиканинг дифференциал тенгламаларини ўрта мактабда суст ёки умуман ўқий олмаган кўпчилик талабалар, уларни қандай тушуниши мумкин? Мутахассислик блокларидаги бошқа фанларни, масалан, математикани мактабда аъло баҳоларга ўзлаштирган ўқувчилар бизнингча жисмоний маданият факултетига ўқишга келмаган бўлар эди. Ёки бошқа ҳолатларда, педагогика фани билан жисмоний маданиятни иккита, бошқа-бошқа фан сифатида тўлиқ тушунадиган мутахассисларни мавжудлигичи? Шу боис бўлса керак фаолият соҳалари ва фанлар ўртасидаги ўзаро алоқадорлик тушунчаси кишилар онгида кундан-кун пасайиб борапти. Бу ўз навбатида “мен волейболчи эмас, футболчи ёки гимнастикачи эмас энгил атлетикачи”, — деган фикр келиб чиқиб, “мендан волейболни ёки гимнастикани сўрама”, — деган хулосага олиб келади.

Албатта, бу муаммоларни оҳир-оқибатда бошқа фан ўқитувчилари эмас ўзимиз ҳал қилишимизга тўғри келади. Соҳамизни зарур даражада тарғиб қилиб, бошқа фан соҳалари тайёрлайдиган йўналишларнинг маъмурлари

билан буюртма-шартнома тузиш керак бўлади. Масалан, магистратура ва доктарантурада ўқиш истаги бор тиббиёт институтининг иқтидорли талабасини, айниқса, хотин-қизлардан жисмоний маданият ва спорт машқи жараёни бўйича илмий иш қилишга буюртма бериб, уни келгусида факултетнинг тиббий-биологик йўналишдаги кафедраларида ишлашини имтиёзлаш керак. Бу жараёни математика, тарих, биология, информатика, физика, кимё, қўйинки, бошқа барча фан йўналишлари билан ҳам амалга ошириш мумкин.

Бу муаммони ҳал қилишнинг бир томони бўлса, иккинчи томони ўқув режасидаги фанлар бўйича жисмоний маданият факултетларида машғулоти олиб борувчи профессор-ўқитувчилар жисмоний маданият ва спорт машқи жараёни ҳақида билимларни ўқиб, ўрганиб фанлар бўйича берадиган асосий маълумотларни жисмоний маданият ва спорт билан ўзаро алоқадорликда боғлаб талабаларга бериш керак. Шу орқали бошқа фан бўйича мутахассис олимлар ҳам жисмоний маданият ва оммавий спортнинг сирли олами билан оشنا бўлиб, кейинги ҳаётларда мунтазам жисмоний машқ қилиб, соғлом турмуш тарзини кечириб, илмий-педагогик фаолиятда янада самарали ютуқларга эришиб, узоқ ва соғлом ҳаёт кечиришларига замин яратиш мумкин.

Мамлакатимизда мавжуд таълим муассасалари (болалар боғчалари, умумтаълим мактаблари, касб-ҳунар коллежлари ва ҳақозо)да сир эмаски барча жабҳаларда хотин-қизлар фаолият олиб бормоқда. Жумладан жисмоний маданият ва спорт соҳасида ҳам хотин-қизларнинг ўрни беқиёс.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishi barcha sohalar kabi jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishda barcha imkoniyatlar yaratildi. Respublikada jismoniy madaniyat va sport harakatini tashkil qilish hamda boshqarish vazifalari O'zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi (Respublika sport qo'mitasi) zimmasiga yuklatilgan. Uning ishlariga ko'maklashuvchi va bevosita nazorat qilib boruvchi Davlat organi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hisoblanadi. Respublika Oliy Majlis tarkibida Fan, Madaniyat,


sog'liqni saqlash va sport bo'yicha maxsus komissiya tashkil yetilgan. Bu komissiya jismoniy madaniyat va sport ishlarining tashkil qilinishi, u bilan bog'liq bo'lgan qonuniy xujjatlarni tayyorlab Oliy majlisga taqdim etadi. Zarur bo'lganda Respublika davlat sport qo'mitasi va boshqa davlat organlarining jismoniy madaniyat va sport sohasidagi axborotlari, hisobotlarini muhokama qilib, qarorlar chiqaradi.

Respublikada ishlab chiqarish tarmoqlari, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa sohalar keng tarmoqlidir. Ularning turlari va vazifalariga asosan turli sport jamiyatlari va uyushmalari tashkil etilgan. Ular o'z sohalarini bo'yicha jismoniy madaniyat va sport harakatini boshqarib boradi. Ular asosan Respublika kasaba uyushmalarining Jismoniy madaniyat-sport jamiyati ("O'zbekiston" deb nomlangan edi), "Dinamo" (ichki ishlar xodimlari), "Yoshlik" (maktab o'quvchilari), "Talaba" (oliy o'quv yurtlari), Markaziy harbiy sport klubi (MHSK), mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlari hisoblanadi. Ularning tarkibida esa turli xil sport klublar ("Traktor", "To'qimachi", "Paxtakor", "Navbaxor", "Kimyogar", "Lochin" va h.k.) tashkil etilib, ular o'z jamoalarida, shuningdek bir qancha sport turlari bo'yicha jamoalarni boshqarishda faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublika davlat sport qo'mitasi, Respublika sport jamiyatlari va ularning viloyatlar, tuman-shaharlardagi tarmoqlari hamda boshlang'ich jismoniy madaniyat jamoalarida (sport klublar) asosiy faoliyatlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi, ya'ni (chizma):

Aholini jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanishga jalbetishda quyidagita dbirlardan maqsadli foydalanilmoqda, ya'ni:

- sport inshootlarini kengaytirish, zarur jixozlar va asbob-uskunalar bilan ta'minlash;
- mutaxassis kadrlar tayyorlash va ularning malakalarini oshirish;
- bolalar va o'smirlar sport maktablarini ko'paytirish, ularga iqtidorli bolalarni jalb etish, yetuk sportchilar tayyorlash hamda ularni Respublika va jahon sport musobaqalariga tayyorlash;
- jismoniy tarbiya, sport, sayohat (turizm) va xalq milliy o'yinlarini targ'ibot qilish, bunda ommaviy axborot vositalari, teleradio, ko'rgazmali



- vositalar, zamonaviy texnikalardan keng foydalanish va boshqalar shular jumlasidandir.

Yuqorida bayon etilgan yo'nalishlarning ba'zi sohalarida erishilayotgan yutuqlar, tajribalardan namunalar keltirish mumkin. 1992 yil 14 yanvarda Oliy majlisda "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" qonun qabul qilindi. Xalqaro sport musobaqalari va jahondagi ilg'or tajribalarga tayanilgan holda bu qonun 2000 yil may oyida oliy majlisda yangi taxrirda yana qabul qilindi.

Bu qonunda jismoniy madaniyat va sport harakatiga rahbarlik qiluvchi davlat va jamoat idoralari, ularning vazifalari, burchlari, huquqlari mazmun topgan. Fuqarolar va sportchilarning jismoniy tarbiya, sport, sayohatlar, xalq milliy o'yinlari va boshqa mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlariga kafolatlar berildi.

Ye'tirof yetish lozimki, Respublikada jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishda Prezidentimiz va Respublika hukumati alohida g'amxo'rlik qilib bormoqda. Buning dalili sifatida Respublikada futbolni rivojlantirish (1993,1996), Kurash (1998) va boshqa sport turlarini halqaro sport maydonlariga olib chiqish masalalri bilan bog'liq qator qarorlar qabul qilinganligi ko'rsatishning o'zi kifoyadir. Ayniqsa, 1999 yil 27 mayda «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori muhim ahamiyatga egadir. Shu asosda «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari majmui ishlab chiqildi va amalda joriy etildi (2000 yil. 1 mart). Oliy o'quv yurtlari talabalarining Respublika «Talaba» sport uyushmasi ta'sis etildi (2001 yil. 30 mart).

Yana bir muhim tomoni shundaki, O'zbekiston sportining kelajagi va uning ravnaqini ta'minlash yo'lida juda muhim tadbir amalga oshirilmoqda. 2002 yil 24 oktyabrda Respublika Prezidenti «O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida» Farmon e'lon qilindi va shu yil 30 oktyabrda O'zRVM maxsus qaror qabul qildi. Unda ta'kidlanishicha «Bolalar sport jamg'armasi» barcha viloyatlar va hududlarda tashkil qilinishi, unda sport qo'mitalar, sport jamiyatlari faol ishtirok etishi, shuningdek Respublika Oliy ta'lim vazirligi, xalq ta'limi vazirligi, turli davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, ayniqsa

Kasaba uyushmalari bevosita amaliy yordam berishlari uqdirilgan. Bu o'z navbatida barcha joylardagi bolalar va o'smirlar sport maktablari, sport internat-maktablari, Olimpiya o'rinbosarlari sport maktablari va umum-ta'lim o'rta maktablardagi sport to'garaklarining ish faoliyatini jonlantirish, ularning sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashda xizmat qilishi muqarrardir.